

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

GLOBALLASHUV: FOLKLOR VA MA'NAVIY TARAQQIYOT

Maxsuda Yusupboyevna KARIMOVA

Urganch Ranch texnologiya universiteti

“O‘zbek va xorijiy tillar” kafedrası v.b.dotsent, PhD

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15290640>

Annotatsiya. Ushbu maqolada xalqaro folkloristika va turkiy xalqlar folklorining bugungi kundagi dolzarb muammolari haqida fikr yuritiladi. Globalizatsiya sharoitida folklorning o‘ziga xosligini saqlab qolish, uni raqamli muhitda ommalashtirish, madaniy merosni himoya qilish va folkloristik tadqiqotlarda zamonaviy metodlardan foydalanish kabilar, bu borada o‘zbek folklorshunos olimlari, xususan, professor Jabbor Eshonqulovning ilmiy tadqiqotlariga tayangan holda folklorshunoslik oldida turgan muammolar muhokama qilinadi. Shuningdek, o‘zbek folklorshunos olimlari tomonidan turkiy xalqlar folklorini o‘rganishda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish, folklorning turli janrlarini tadqiq etish va turkiy tildagi folklor asarlarining transmilliy aloqalarini aniqlash kabi vazifalar ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: folkloristika, professor Jabbor Eshonqulovning ilmiy tadqiqotlari, turkiy xalqlar folklori, globalizatsiya, raqamli folklor, madaniy meros, mintaqaviylik, neomifologizm, transmilliy aloqalar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются актуальные на сегодняшний день проблемы международной фольклористики и фольклора тюркских народов. Обсуждаются проблемы сохранения самобытности фольклора в условиях глобализации, популяризации его в цифровой среде, защиты культурного наследия и использования современных методов в фольклористических исследованиях. Также узбекскими учеными-фольклористами при изучении фольклора тюркских народов рассматриваются такие задачи, как учет региональных особенностей, исследование различных жанров фольклора и выявление транснациональных связей произведений фольклора на тюркском языке.

Ключевые слова: фольклористика, научные исследования профессора Джаббара Эшонкулова, фольклор тюркских народов, глобализация, цифровой фольклор, культурное наследие, регионализм, неомифологизм, транснациональные связи.

Annotation. This article reflects on the current problems of international folkloristics and folklore of Turkic peoples. In the context of globalization, such as maintaining the uniqueness of folklore, popularizing it in the digital environment, protecting cultural heritage and using modern methods in folkloristic research, the problems facing folklorism are discussed in this regard, relying on the scientific research of Uzbek folklorist scientists, in particular professor Jabbar Eshonkulov. Also, in the study of the folklore of Turkic peoples by Uzbek folklorists, tasks such as taking into account regional features, researching different genres of folklore and identifying transnational links of folklore works in the Turkic language are considered.

Keywords: folklore studies, scientific research of Professor Jabbar Eshonkulov, folklore of the Turkic peoples, globalization, digital folklore, cultural heritage, regionalism, neo-mythologism, transnational relations.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Folklor shunchaki so‘z san‘ati namunasigina emas, balki har bir millatning borligini, ulug‘ligini namoyon etib turuvchi, millat bilan birga yashab, birga taraqqiy etib kelayotgan boqiy qadriyat ko‘plab san‘atlarning ibtidosidir. Oddiygina maqoldan tortib, yirik hajmli dostonlarimiz, yozma adabiyot namunalaridan bugun yaratilayotgan ijod namunalari gacha barchasida biz mifologik tasavvur izlarini, millat tafakkurning turli davrlarga oid evrilishlarini kuzatamiz.

Folklorshunoslik – azaldan xalqning dono fikrlari jamlanmasi sifatida qadimiy urf-odatlar, e‘tiqodlar va madaniy merosini o‘rganuvchi fan bo‘lib, sohaga oid ma‘lumotlar asrlar osha tadqiqotchi olimlar tomonidan yozib olinib, to‘plab, tahlil va tasnif qilinayotgan bo‘lsa-da, hozirgi globallashgan davrda folklorshunoslik texnologik taraqqiyot va madaniy o‘zgarishlar ta‘sirida yangi muammolar va imkoniyatlarga duch kelmoqda. Xalqaro folklorshunoslik doirasida qaralganda turkiy xalqlar folklori ham o‘zining boyligi, janr va mazmun rang-barangligi va o‘ziga xosligi bilan alohida o‘rin tutadi. Shu sababli, turkiy xalqlar folklorini o‘rganishda dolzarb bo‘lgan masalalarni aniqlash va ularni hal etish yo‘llarini topish muhim muammolardan sanaladi.

Bu muammolardan dastlabkisi globalizatsiya va folklorning o‘ziga xosligi bo‘lib, globalizatsiya madaniy almashinuvni tezlashtirib, folklorning ommalashuviga imkon yaratadi. Ayni paytda, u folklorning o‘ziga xosligini yo‘qotish xavfini ham tug‘diradi. Standartlashtirilgan madaniy mediya mahsulotlari mahalliy folklorning o‘rnini egallashi mumkin. Shuning uchun, folkloristik tadqiqotlarda globalizatsiya sharoitida folklorning o‘ziga xosligini saqlab qolish masalasiga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Hozirgi globallashuv zamonida ro‘y berayotgan insonning ma‘naviy, ruhiy hayotidagi ahvoli iqtisodiy, axloqiy bo‘hronlar insoniyatni turfa xil sinovlarga giriftor qiladiki, buni tasavvur qilmoq ham mushkul. Bunda aldanish, balandparvoz tushunchalar sehriga berilish, shafqatsiz voqelik qarshisida kuchsizlik qilish inson shaxsini yanada parchalab, maydalashtirib tashlamog‘i muqarrardir. [Eshonqulov J.4; 226] Bunday xavf-xatar, ma‘naviy tahdidlarni yengishda adabiyot va uning tagzamini - folklorning o‘rni, hissasi beqiyosdir.

Inson, odatda, o‘z tajribasi va imkoniyatidan kelib chiqib yashaydi. Agar xalq og‘zaki ijodi faqat tajriba va imkoniyatning badiiy ifodasi bo‘lganda, oddiy jo‘n hikoyalardan farq qilmas edi. Orzu-istak esa har qanday tajriba imkoniyatdan yuqori turadi. U insonda azal-abad tuyg‘ularini uyg‘otadi. Azal -abad tuyg‘ular har qanday san‘atning yuragidir. Shu sababli xalq o‘z tajriba va imkoniyatlaridan tashqari

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

hamisha orzu-umid qiladi. Xalq o‘zi yengib o‘tolmagan mashaqqatlarni, yetolmagan baxt-saodatini orzu zimmasiga yuklaydi. [Eshonqulov J.4; 81] Insoniyatning go‘zal orzularining amalga oshishi folklor namunalarida mujassamlashgan. Folklor namunalariga nisbatan insoniyatning badiiy tafakkuri hosilasi sifatida qaralishi, nomoddiy meros sifatida yuksak ahamiyatga molikligi shundan, aslida.

Har qanday epik ijod, birinchi navbatda, ertak va dostonlar ham o‘z qurilmasiga ega. Motiv esa ana shu qurilmada asosiy o‘rin tutadi. Shunday ekan, folklor asarlari tahlili motivlar tahlili orqali amalga oshmog‘i kerak. Epik asarlardagi motivlarni aniqlash, har bir motivning boshqa motivlar bilan bog‘liq jihatlarini, ichki harakat va xususiyatlarini, badiiy-estetik vazifalarini tahlil etish folklorshunoslikdagi muhim masalalardan biridir.[Eshonqulov J.4; 57]

Eposlar tadqiqotida asar badiiyati bilan bir qatorda obrazlar kesimidagi ruhiy tahlil masalasi muhimlik kasb etib kelmoqda. Epos tarkibidagi asosiy obrazlar bilan bir qatorda ularning syujet chizig‘idagi faoliyatini to‘ldirish, ko‘rkamlashtirish maqsadida har bir ko‘makchi qahramon - epizodik obraz faoliyati ham syujetni takomillashtirishdagi hissasi katta bo‘lib, ba‘zi hollarda asosiy qahramon bilan raqobatga kirishadi. Bu obrazlar ham baxshi-ijodkorlarning ijodiy laboratoriyasida yaratilib, eposda o‘z vazifasiga ega. Ularni ayri-ayri holda, keng tahlil etish uchun mavzu bo‘la oladi. Bunday obrazlarning talqini, badiiy asar va undagi syujet hamda motivlarning mazmunini yanada chuqurroq anglashda bizga yaqindan yordam beradi. Bunday ko‘makchi obrazlar yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib boorish ham fanda muhimlik kasb etib etib kelmoqda. Bu yuzadan ilmiy tadqiqot ishlari ayrim eposlar doirada boshlangani o‘zbek folklorshunosligi muhim tadqiqodlar bilan to‘ldirilayotganini ko‘rsatadi.

Shoir, yozuvchi, dramaturg va adabiyotshunos olim, birinchi o‘zbek professori Abdurauf Fitrat o‘zining “Adabiyot qoidalari” asarida yozma adabiyot va el adabiyoti deb adabiyotni ikkiga ajratadi. (“El adabiyoti” tushunchasi xalq og‘zaki ijodi namunalariga nisbatan aytilgan.) Bu ajratish tog‘risida V. Mahmud shunday fikr bildiradi: “ ... lekin yozma va el adabiyotini ayirmoq va bularni ta‘rif qilmoq qiyindir, hatto mumkin emasdir. Yozma adabiyotning bir xususiyati uning yozmaligida, ikkinchi xususiyati asar egasining ma‘lum bo‘lishidadir. El adabiyotining xususiyatlarida bu holatning bo‘lmasligi va og‘izdan og‘izga ko‘chib yurishidadir. Shunday bo‘lsa-da bizning san‘atkor adabiyotimizga (yozma adabiyotga) qarshi o‘zining samimiyligi, soddaligi va o‘z borlig‘ini saqlab kelgan bir adabiyot sifatida

“TURKIY XALOLAR FOLKLORINING OIYOSIY O'RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

ma'lum. Biroq buning ayirmasi yozma bo'lmasligida, yo egasining ma'lum emasligida ham emas, o'zining ruhidadir”[Fitrat A. 7; 87].

Yuqoridagilardan kelib chiqib ta'kidlash mumkinki, folklorning yozma adabiyotga ta'siri masalalari Alisher Navoiy zamonida qanday dolzarb ahamiyatga ega bo'lsa, bugun ham xuddi shunday. Alisher Navoiyning barcha asarlarida biz folklorga ijodiy yondashuvni, milliylikka suyanib, umumbashariy qadriyatlar ulug'langanini kuzatamiz. Bu an'ana Navoiy, Bobur zamonidan so'ng Abdulla Qodiriydan to bugungi kunda ijod etayotgan adiblarimizgacha, Cho'lpondan to zamonamiz shoirlarining izlanishlarida ham u yoki bu darajada davom etyapti. Faqat bizda emas, dunyo adabiyotida ham shu hol kuzatilmoqda. Aytish mumkinki, so'nggi yuz yillikda adabiyotda folklorga qayta yuzlanish davri boshlandi. Joys, Borxes, Markes, Kafka kabi adiblar ijodi buning yorqin dalilidir. XXI asrda dunyo miflariga qaytadan murojaaat, yangicha talqin qilish davri, neomifologizm davri boshlandi. [Eshonqulov J.4:190]

Folklor namunalarini raqamli texnologiyalarga o'tkazish ham soha rivoji uchun muhimloik kasb etadi. Internet va raqamli texnologiyalar folklorning tarqalishi va saqlanishi uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Raqamli folklor – internetda yaratiladigan, tarqatiladigan va saqlanadigan folklor shakllari. Raqamli muhitda folklorning ommalashuvi, uning keng auditoriyaga yetib borishiga yordam beradi. Shu bilan birga, raqamli folklorning autentikligini ta'minlash, mualliflik huquqini himoya qilish va folklorning buzilishiga yo'l qo'ymaslik kabi muammolar ham mavjud.

Folklor namunalarini madaniy meros sifatida himoya qilish. Folklor – xalqning madaniy merosining muhim qismi. Madaniy merosni himoya qilish – folkloristik tadqiqotlarning asosiy vazifalaridan biri. UNESCO tomonidan qabul qilingan "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish to'g'risida"gi konvensiya folklorning madaniy meros sifatidagi ahamiyatini tan oladi va uni saqlash bo'yicha chora-tadbirlarni ko'rishga chaqiradi. Madaniy merosni himoya qilish folklorning yozib olinishi, arxivlashtirilishi, o'rganilishi va ommalashtirilishini o'z ichiga oladi. Hozirda O'zbek folklorshunosligida ilmiy-tadqiqot ishlarining janrlar qamrovi kengaydi. Bu borada folklorshunos olimlarning xizmatlari tufayli xalq baxshi va xalfalarining biografiyasini aniqlash, ularning ijro an'analarini tavsiflash hamda repertuarini to'plab ilmiy jarayonga taqdim qilinishida o'z aksini topgan. Bu esa o'zbek folklori arxivini yangi tadqiqot materiallari bilan boyishiga hissa bo'lib qo'shildi.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

Folkloristik tadqiqotlarda zamonaviy metodlarni qo‘llash. Folkloristik tadqiqotlarda zamonaviy metodlardan foydalanish folklorning mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi. Strukturalizm, semiotika, gender tadqiqotlari va boshqa nazariy yo‘nalishlar folklorning ijtimoiy, madaniy va siyosiy kontekstini tahlil qilish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar folklor materiallarini yig‘ish, tahlil qilish va saqlash uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Turkiy xalqlar folklorining mintaqaviy xususiyatlari: Turkiy xalqlar folklori geografik jihatdan keng hududda tarqalgan bo‘lib, har bir mintaqaning o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. O‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman, ozarbayjon, turk, tatar, boshqird, yoqut va boshqa turkiy xalqlar folklori o‘zining janrlari, motivlari va obrazlari bilan ajralib turadi. Turkiy xalqlar folklorini o‘rganishda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish, ularning o‘xshashliklari va farqlarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Masalaning bu tomoni ham fanimiz uchun yangilik emas, folklorshunos olim, professor Safarboy Ro‘zimboyev tomonidan yaratilgan monografiya – “Xorazm dostonlari”ni (turkiy xalqlar dostonlari bilan qiyosiy o‘rganish tajribasi) [Ro‘zimboyev S. 8; 90] asosida folklorshunoslikka oid keyingi ilmiy asarlarining yaratilishi uchun, Xorazm dostonlarini nashrga tayyorlashda hamda Xorazm dostonchilik an‘analari, baxshilarining repertuarlarini o‘rganishda, Xorazm folkloriga oid janrlarning yaratilishi genezisi va lokallik xususiyatlarini belgilashda dasturulamal vazifasini o‘tab kelmoqda. Folklorshunoslik rivoji uchun bunday tadqiqot ishlari – monografiyalar yaratish dolzarblik kasb etadi. Folklorda lokallik va genezisni aniqlash turkiy tildagi folklor asarlarining transmilliy aloqalarini aniqlashtirish imkonini beradi. Turkiy tildagi folklor asarlari transmilliy aloqalarga ega bo‘lib, ular turli xalqlar o‘rtasida madaniy almashinuvni ta‘minlaydi. Masalan, “Go‘ro‘g‘li” eposi ko‘plab turkiy xalqlar folklorida uchraydi. Turkiy xalqlar folklorining transmilliy aloqalarini o‘rganish, ularning kelib chiqishi, tarqalishi va o‘zgarishini aniqlashga oid ma‘lumotlar ko‘lamini kengaytiradi. Xalqlar o‘rtasidagi madaniy mushtaraklikni oshiradi.

G‘urur bilan aytishimiz mumkinki, bizda dunyo folklori namunalari bilan bimalol bellasha oladigan doston, ertak, maqol-matal, qo‘shiq, afsona va rivoyatlarimiz bor. Bugungi kungacha yozib olingan dostonlar sonining o‘zi 400 tadan oshib ketadi. Boshqa janr namunalari variantlari esa ko‘plab jildlarni tashkil etadi.[Eshonqulov J. 3; 40]

Xalq og‘zaki ijodi namunasi bor-yo‘g‘i og‘zaki ijro etilgani uchungina emas, balki og‘zaki o‘zlashtirilib, og‘zaki ijro etilib, og‘zaki tarzda meros qoldirilishi,

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING OIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI”

mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

boshqacha aytganda, har galgi ijro jarayonida qayta yaralishi bilan farqlanib turadi. Folklorshunos olimlar ta’kidlaganidek, folklorlarda qo’shiq yo‘q, balki qo’shiqning ijro holati, ijro jarayoni mavjud. Bu fikrni xalq ijodining boshqa janrlariga ham tatbiq etish mumkin. [Eshonqulov J.4: 187]

Xulosa. O‘zbek epik ijod namunalarida tilimizning dialektologiyasi, leksikologiyasiga oid juda ko‘p qimmatli so‘z va iboralar mavjud. Bu so‘z va iboralarni, umuman dostonlarimiz tilini o‘rganish, nafaqat o‘zbek tili, balki umumturkiy til uchun ham muhim ahamiyatga ega. Zero, epik ijod tilining lug‘at boyligi qadimgi va hozirgi turkiy til tarkibini tashkil etadi. Shunday ekan, dostonlarimiz tili nafaqat folklorshunoslarimiz uchun, balki tilshunoslarimiz uchun ham muhim manba va tadqiqot obyekti bo‘la oladi.

Xalqaro folkloristika va turkiy xalqlar folklori XXI asrda yangi muammolar va imkoniyatlarga duch kelmoqda. Globalizatsiya sharoitida folklorning o‘ziga xosligini saqlab qolish, uni raqamli muhitda ommalashtirish, madaniy merosni himoya qilish va folkloristik tadqiqotlarda zamonaviy metodlardan foydalanish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Turkiy xalqlar folklorini o‘rganishda mintaqaviy xususiyatlarni hisobga olish, folklorning turli janrlarini tadqiq etish va turkiy tildagi folklor asarlarining transmilliy aloqalarini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Kelajakda ushbu sohada olib boriladigan tadqiqotlar folklorning ahamiyatini yanada oshiradi va madaniy merosni saqlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi. (To‘ldirilgan 2-nashri) – Toshkent: ”O‘zbekiston”, 2022.– 416 b.
2. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi (rasmiy nashr 3-jild) – Toshkent: ”O‘zbekiston”. NMIU, 2019.– 400 b.
3. Eshonqulov J. Folklor: obraz va talqin.- Qarshi. Nasaf, 1999.
4. Eshonqulov J. Epik tafakkur tadriji-Toshkent. Fan, 2006. 46-b
5. Eshonqulov J. Mif va badiiy tafakkur. – Toshkent. Fan, – 2019 245b.226
6. Eshonqulov J. O‘zbek folklorida tush va uning badiiy talqini. - Toshkent, Fan, 2011.
7. Фитрат А. Адабиёт қоидалари. Адабиёт муаллимлари ҳам адабиёт ҳаваслилари учун қўлланма. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – Б.81 – 87. (Нашрга тайёрловчи, сўзбоши ва изоҳлар муаллифи филология фанлари номзоди Ҳамидулла Болтабоев).
8. Рўзимбоев С. Хоразм дostonлари (Туркий халқлар дostonлари билан қиёсий ўрганиш тажрибасидан) – Тошкент: Фан, 1985.– Б.96
9. Рўзимбоев С. Хоразм дostonчилиги эпик анъаналари – Урганч, Университет 2008. – Б.188.
10. Еремина В.И. Миф и народная песня // Миф. фольклор и литература. – Л.,1978. С.6.
11. Фромм Э. Забытый язык // Душа человека. – Москва: Политиздат.1992.

“TURKIY XALQLAR FOLKLORINING QIYOSIY O‘RGANILISHI MASALALARI” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman

12. Sabirova N. Xorazm dostonchilik maktablarining lokal xususiyatlari / "3RD International Azerbaijan Congress on Humanities and social sciences"/ November 26 – 28, 2022. – Congress proceedings book ISBN: 978 – 605 – 72169 –1 –5. P.466 – 468
13. Снесарев Г. П. Реликты домусулманских верований и обрядов у узбеков Хорезма. – М.: Наука, 1969. – С.397.
14. Парандовский Ян. Сўз кимёси / бадиа-эссе / Таржималар: О.Шарафиддинов, М.Акбаров. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2022. – Б.464.

Internet manbalari:

15. www.uzbekfolklore.uz
16. www.cheloveknauka.com
17. uz.wikipedia.org
18. e.lib.buxdupi.uz
19. e.librari.namdu.uz
20. info@nlibrari.uz
21. www.ziyouz.com.kutubxonasi